

SMTIda BMT vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



2025-yil 30-iyun kuni SMTIda Institut direktori Eldor Aripovning BMTning mamlakatimizdagi asosiy bo'linmalarini, jumladan, XMT, YUNESKO, MBXT, BMTGJB, BMTOITS, BMTTD, YUNISEF, JSST, FAO va BMTAJ vakillari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazmunli muzokaralar chog'ida tomonlar hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, uni yanada kengaytirish istiqbollarini muhokama qildilar.



Uchrashuv boshida Eldor Aripov global va mintaqaviy kun tartibidagi asosiy masalalar bo'yicha sheriklikni mustahkamlash, birgalikdagi yechimlarni ishlab chiqish uchun BMT bilan muntazam hamkorlik qilish muhimligini ta'kidladi.



O'z navbatida, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Mahl mamlakatning global muammolarni, jumladan, iqlim o'zgarishi va gender tengligini ilgari surishga qo'shayotgan hissasini yuqori baholadi. BMT faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun O'zbekiston rahbariyatiga samimiyl minnatdorlik bildirdi. Uning so'zlariga ko'ra, bunday hamkorlik asosiy ustuvor yo'nalishlarni ilgari surish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Uchrashuv ishtirokchilari O'zbekiston va BMT tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikning yuqori sur'atini mammuniyat bilan qayd etdilar. Bugungi kunda keng ko'lamli ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan 166 ta qo'shma dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta maxsus rezolyutsiya qabul qilingani mamlakatimizning xalqaro maydonidagi nufuzi tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tomonlar BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish doirasida hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini atroficha muhokama qildilar. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ishtirokchilar O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasidagi faol pozitsiyasini, xususan, yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish va yashil texnologiyalarni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlardagi sa'y-harakatlarini yuqori baholadilar. Ushbu tashabbuslar nafaqat mamlakatning barqaror rivojlanishiga, balki mintaqaviy darajada yagona iqlim kun tartibini shakllantirishga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Ekologik muammolar doirasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash choralari ham muhokama etildi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etayotgani va suv ta'minoti tizimlarini zamonaviylashtirayotgani alohida ta'kidlandi. Bu chora-tadbirlar iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sishi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Muhokamalar davomida demografik dividendga sarmoya kiritish masalasi ko'tarildi. Ushbu yo'nalishda ish o'rinnari yaratish, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va yoshlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi. O'zbekiston hamon yosh aholiga ega mamlakat bo'lib qolmoqda: fuqarolarning 55 foizi 30 yoshga yetmagan. Bashoratlarga ko'ra, mehnatga layoqatli aholi (15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar) soni 2023-yildagi 23,6 million kishidan 2050-yilga kelib 33 milliondan oshishi kutilmoqda.

Inson huquqlari, jumladan, xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi rolini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlar yuksak baholandi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi faolligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada so'nggi besh yilda O'zbekistonda ishbilarmon ayollar soni ikki baravar ko'payib, iqtisodiyot va sanoatning turli sohalarida ularning ulushi qariyb 50 foizni tashkil etmoqda.

Migratsiya masalalari alohida muhokama qilindi. Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xavfsiz va tartibli migratsiya siyosatini yuritish muhimligi ta'kidlandi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston mehnat migrantlarini faol qo'llab-quvvatlayotgani, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirayotgani va xorijda ishga joylashishni qonuniylashtirishga ko'maklashayotgani ta'kidlandi.

Mehmonlar Toshkentning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli ortib borayotganini e'tirof etdilar. Mamlakat tashqi siyosatining Afg'oniston yo'nalishiga alohida e'tibor qaratildi. Qo'shni mamlakatning mintaqaviy integratsiya jarayonlariga izchil qo'shilishi ulkan ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Sog'lijni saqlash sohasi ham e'tibordan chetda qolmadidi. O'zbekistonda tibbiy yordam sifati va ommabopligrini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani e'tirof etildi. JSST bilan faol hamkorlik xalqaro standartlarni joriy etish va birlamchi tibbiy-sanitariya yordami qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Uchrashuv yakunida tomonlar ochiq va barqaror sheriklikka bo'lgan intilishlarini ta'kidladilar. Birgalikdagi

sa'y-harakatlarni yanada samarali muvofiqlashtirish va O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini ilgari surish imkonini beradigan bunday uchrashuvlarni muntazam ravishda davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

